

**O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligida
korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida 2023-yil uchun
UMUMIY HISOBOT**

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amaldagi qonunchilikdagi topshiriqlarni bajarilganligi to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosi ta‘minlash maqsadida karor ilovasi bilan tasdiqlangan 29 ta indikator bo‘yicha Agentlik markaziy apparati xamda uning tizim tashkilotlari kesimida indikatorlar ijrosi ta‘minlandi.

Siyosat va tartib-taomillar

Agentlik Bosh direktorining “Davlat fukarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruq loyixasi hamda Agentlik xodimlari tomonidan respublika bo‘ylab xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom loyixasi ishlab chiqildi.

Agentlikning tizim tashkilotlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga taalluqli bo‘lgan 6 ta hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritildi va sifat menejment tizimi bilan muvofiqlashtirildi.

Xavf-xatarlarni baholash

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda uning tizim tashkilotlarining 2022-yil uchun umumiy xavf-xatarlar haritasi ishlab chiqildi va bugungi kunda 2023-yil uchun mo‘ljallangan xarita ishlab chiqildi.

Xavf-xatarlar haritasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-martdagi 114-son qarori bilan Agentlikka yuklangan vazifalarni bajarish uchun amalga oshiradigan barcha funksiyalarni qamrab olgan

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi jami 1317 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyasi to‘ldirilgan;

Monitoring natijalariga ko‘ra Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi 38 nafar xodimda manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan. Shunidan 19 tasi tartibga solingan, 10 ta potensial va 9 tasi real. Ushbu real va potensial manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish buyicha tegishli choralar ko‘rildi xamda bartaraf etildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish

Agentlik mexnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan va ular bilan Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatuvchi 1357 ta xodimlar tomonidan tanishilgan;

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo‘yicha Agentlik va uning tizim tashkilotlarida

o'tkazilgan, tekshiruv natijasi bo'yicha 57 ta kontragentlar o'rganib chiqilgan va 100 % ijobiy xulosa berilgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Agentlikda 2023-yil davomida markaziy apparatga bosh yuriskonsult va Axborot tahlil bo'limi boshlig'i lavozimlariga yangi kadrlar ishga qabul qilingan.

Bunda, Agentlik va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashki savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jixatdan tartibga solish agentligi markaziy apparatidagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish to'g'risida tartibga muvofik ochik va shaffof xolda o'tkazilgan. Shuningdek, Agentlikning Facebook ijtimoiy tarmogi orqali to'g'ridan-to'g'ri e'firda ko'rsatilgan. Ushbu nomzod tekshirilgani to'g'risida hisobot tayyorlandi.

Bundan tashqari agentlikning tizim tashkilotlari tomonidan 2023-yil davomida 32 nafar xodim ishga qabul qilingan. Barcha xodimlar tanlov asosida ishga qabul qilingan.

Ta'lim va kommunikatsiya

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida faoliyat ko'rsatuvchi 702 nafar xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha onlayn va offlayn seminar treninglar o'tkazildi. Shuningdek, 332 nafar xodimlar orasida komplaens yo'nalishi bo'yicha bilimni sinash maqsadida onlayn test sinovlari o'tkazildi.

Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

O'zbekistan texnik jihatdan tartibga solish agentligiga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar kelib tushmagan.

Monitoring va nazorat

Agentlik va uning tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini monitoringini o'tkazishda birqancha tadbirlar o'tkazildi. Bulardan, Agentlik va uning tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning yetarliligi va ularning samaradorligi, korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo'limlari faoliyatining samaradorligi, OAVlarda foydalanuvchilar tomonidan qoldirilayotgan izohlar, xodimlarni korrupsiyaga qarshi asosiy tartib taomillardan xabardorligi yuzasidan tadbirlar o'tkazilib faoliyat bo'yicha tavsiyalar va chora-tadbirlar belgilab berildi.

Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Agentlik va uning tizim tashkilotlarida o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar talablari buzilish xolatlari soni 101 tani tashkil etadi.

Komplaens va ichki audit bo'lim boshlig'i



O. Dustmuxamedov